



UO'K:61:577.1:378.126:371.3

Zulfizarxon YULCHIYEVA,

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, Pedagogika va psixologiya kafedrası mudiri,

E-mail: yzulfizarxon1965@gmail.com

Zarnigor TEMIROVA,

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

O'zbekiston Milliy universiteti professori, p.f.d B.Abdullaeva taqrizi asosida

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF MEDIASAVODKHANY SKILLS OF STUDENTS OF VOCATIONAL EDUCATION IN THE CONDITIONS OF DIGITIZED EDUCATION

Annotation

The article analyzes the need to develop media literacy skills among vocational education students in the context of digitalized learning, its structural components, and pedagogical conditions. The research scientifically substantiates the effectiveness of using innovative educational technologies, interactive environments, and digital communication tools in forming students' media literacy competence.

Key words: Digital education, vocational education, media literacy, digital competence, innovative methodology, media culture.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируются необходимость развития медиаграмотности учащихся профессиональных учебных заведений в условиях цифрового образования, её структура и педагогические условия. Раскрыта эффективность использования инновационных образовательных технологий и цифровых коммуникаций в формировании медиакомпетентности учащихся.

Ключевые слова: Цифровое образование, профессиональное обучение, медиаграмотность, цифровая компетенция, инновационная методика, медиа культура.

RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM SHAROITIDA KASB-HUNAR TA'LIMI O'QUVCHILARINING MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati, uning tarkibiy tuzilmasi va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mediasavodxonlikni shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv o'quv muhitlari va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirilgan ta'lim, kasb-hunar ta'limi, mediasavodxonlik, raqamli kompetensiya, innovatsion metodika, media madaniyat.

Kirish. Raqamli transformatsiya ta'lim tizimining barcha yo'nalishlariga chuqur kirib bormoqda. Kasb-hunar ta'limida bu jarayon o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan axborot, kommunikativ va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mediasavodxonlik raqamli kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarga axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish, axborotning ishonchligini baholash va media kontent yaratish qobiliyatini beradi.

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, kasb-hunar ta'limi tizimida raqamli muhitdan samarali foydalanish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylandi. Shu jarayonda mediasavodxonlik – ya'ni axborot manbalarini tahlil qilish, ularni tanqidiy qabul qilish, soxta xabarlarini farqlash, va o'z fikrini axloqiy meyorlarga asoslangan holda ifoda etish qobiliyati – muhim kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Kasb-hunar ta'limi o'quvchilari turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlanayotgan yosh mutaxassislar bo'lib, ular axborot oqimlari va raqamli platformalarda nafaqat

iste'molchi, balki kontent yaratuvchi sifatida ham faol bo'lishlari zarur. Shu sababli, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida o'quvchilarning mediasavodxonligini rivojlantirish – zamonaviy pedagogik metodika oldidagi ustuvor vazifadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonida ham raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, axborot xavfsizligi va media madaniyatni mustahkamlash ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, amaldagi kasb-hunar o'quv yurtlarida media savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha metodik tizimlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. An'anaviy yondashuvlar faqat texnik malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, tanqidiy va ijodiy fikrlashga kam e'tibor beriladi. Shu boisdan mediasavodxonlikni raqamlashtirilgan ta'lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy masaladir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning maqsadi – raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ilmiy asosda ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat. Bugungi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda kirib kelyapti, shu jumladan kasb-hunar ta'limida ham ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli muhitda o'quvchilar nafaqat texnologiyalardan foydalanishni o'rganishlari, balki medialarni tanqidiy qabul qilish, manipulyatsiyadan himoyalash va axborotni tahlil qilish (ya'ni mediasavodxonlik) ko'nikmalarini egallashlari muhim. Kasb-hunar ta'limi – amaliy, qo'lda bajariladigan ko'nikmalarni o'rgatuvchi ta'lim turi bo'lib, bunda o'quvchilarning texnik jihatdan malakali bo'lishi bilan birga, ular media va raqamli axborot muhitida ham ongli bo'lishlari zarur. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida (masofaviy, gibrid, blended-learning) mediasavodxonlik ko'nikmalari yuqori talabga ega bo'lib bormoqda. Ammo, mavjud pedagogik metodikalarda ayniqsa kasb-hunar yo'nalishlarida mediasavodxonlikni rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus yondoshuvlar yetarli emas. Shu sababli, bu mavzu ilmiy ravishda ham, amaliy jihatdan ham muhimdir. O'quvchilarning mediasavodxonlik darajasini o'lchash, uni rivojlantirish uchun samarali pedagogik metodlarni aniqlash, va raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida ushbu metodlarni qo'llash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar cheklangan. Ayniqsa kasb-hunar yo'nalishlarida, texnik mutaxassisliklarda media vositalarini nazariy jihatdan tahlil qilish va amalda yaratish ko'nikmasini uyg'unlashtiruvchi metodikalar yetishmaydi.

Shuning uchun tadqiqot quyidagi ilmiy muammolarni hal qilishga qaratiladi:

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida kasb-hunar o'quvchilarining mediasavodxonlik ko'nikmalari darajasi qanday?

Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun metodik jihatdan qanday yondoshuvlar samarali bo'lishi mumkin?

Takomillashtirilgan metodika o'quvchilarning mediasavodxonlik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon tibbiyot ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot muhitida mediata'lim mutaxassisliklarini joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davr yangi ta'lim konsepsiyasida: "...zamonaviy dunyoda mediana ijtimoiy madaniy va siyosiy nuqtai nazardan tushunish, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baholash qobiliyati rivojlangan mediasavodxon kadrlarni tayyorlash..." dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilib, ta'lim jarayonlarida mediata'limning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, innovatsion pedagogik va ahborotkommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, pedagogik tajriba, so'rovnoma, diagnostik testlar va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Eksperiment Andijon viloyatidagi uchta kasb-hunar ta'limi muassasasida 126 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, takomillashtirilgan metodika o'quvchilarning mediasavodxonlik darajasini 31,5 foizga oshirdi. O'quvchilarda axborotni tahlil qilish, media etikasi va ijodiy kontent yaratish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Tajriba guruhi o'quvchilari o'z sohasiga oid media loyihalarni mustaqil ishlab chiqish va tahlil qilish qobiliyatini egalladilar.

Tadqiqot natijalari xalqaro tadqiqotchilar – Hobbs (2022), Frau-Meigs (2021) va boshqalar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Mediasavodxonlikni rivojlantirish o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni, axborot madaniyatini va kasbiy raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, metodikaning muvaffaqiyati raqamli ta'lim muhiti, o'qituvchining mediadidaktik tayyorgarligi va interfaol metodlarning uyg'unligiga bog'liq. Tadqiqotning metodologik asosi integrativ, shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion-pedagogik, madaniy-ta'limiy hamda antropologik yondashuvlarga tayanadi. Integrativ yondashuv xalq tabobati an'analari va zamonaviy tibbiyot yutuqlarini uyg'unlashtirish orqali talabalarining ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ularning individual qiziqishlari va bilim saviyasini hisobga olib, kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Innovatsion-pedagogik yondashuv zamonaviy ta'lim texnologiyalarini – interfaol metodlarni, keys-stadi, muammoli ta'lim, simulyatsion treninglar, raqamli platformalar va virtual laboratoriyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, antropologik va sotsiologik yondashuvlar yordamida talabalar ongida raqamlashgan ta'lim muxitiga nisbatan shakllanayotgan ijtimoiy-madaniy qarashlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik, eksperimental, statistik va modellashtirish metodlaridan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar yordamida kasb-hunar ta'limi tizimida raqamlashtirish bo'yicha ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar hamda milliy qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Empirik metodlar doirasida tibbiy ta'lim muassasalarida kuzatuvlar olib borildi, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma, intervyu va diagnostik testlar tashkil etildi. Eksperimental metod yordamida ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhlarida qo'llanildi va natijalar nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi. Statistik metodlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar matematik qayta ishlashdan o'tkazilib, o'rtacha ko'rsatkichlar, dinamik o'zgarishlar va samaradorlik darajasi grafik hamda jadval ko'rinishida ifodalandi. Modellashtirish va prognozlash metodlari orqali esa mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy modeli ishlab chiqildi va uning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlab berildi.

Metodologiya bosqichma-bosqich amalga oshirildi: dastlab ilmiy manbalar va meyoriy-huquqiy hujjatlar chuqur tahlil qilindi, keyingi bosqichda talabalar bilim va ko'nikmalari diagnostika qilindi, so'ng ishlab chiqilgan metodika amaliyotga tatbiq etilib, nazorat va tajriba guruhlarida ko'rsatkichlari taqqoslandi. Yakuniy bosqichda esa natijalar umumlashtirildi, ilmiy xulosalar ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga amaliy tavsiyalar berildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar ilmiy izlanishning nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi. Avvalo, nazariy-uslubiy yondashuv asosida kasb-hunar ta'limida mediasavodxonlikka oid ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari tahlil qilindi, xorijiy tajribalar bilan taqqoslandi. Ushbu bosqichda nazariy tahlil, kontent-tahlil va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik qismida tibbiy ta'lim muassasalarida pedagogik kuzatuvlar o'tkazildi. Bu orqali talabalar mediasavodxonlik darajasi, raqamlashtirilgan ta'limga nisbatan munosabatlari va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi baholandi. Shuningdek, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma, suhbat va intervyu metodlari qo'llanilib, ularning xalq tabobati bo'yicha bilim, qarash va ehtiyojlari aniqlab chiqildi.

Eksperimental-tajriba usuli yordamida ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhlarida joriy qilindi, nazorat guruhida esa

an'anaviy o'qitish jarayoni davom ettirildi. Tajriba natijalarini taqqoslash orqali yangi metodikaning samaradorlik darajasi o'lchandi. Shu jarayonda diagnostik testlar, keys-stadi va interfaol metodlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar sonli ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. O'rtacha qiymatlar, dispersiya, foizlik nisbatlar va dinamik o'zgarishlar hisoblab chiqildi. Natijalar jadval, grafik va diagrammalar orqali tasvirlandi.

Bundan tashqari, modellashtirish usuli orqali mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy modeli ishlab chiqildi va prognozlash usuli yordamida xalq tabobatining ta'lim jarayoniga integratsiyasi bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilab berildi.

Shu tarzda, tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, suhbat, eksperiment, diagnostika, matematik-statistik tahlil va modellashtirish kabi metodlarning kompleks qo'llanilishi ta'minlandi. Bu usullar kasb-hunar ta'limida o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqur yoritishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida kasb-hunar ta'limi tizimida raqamlashtirish imkoniyatlari asosida o'quvchilarda mediasavodxonlik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov asosida tekshirildi. Dastlabki diagnostika bosqichida o'quvchilar mediasavodxonlik madaniyatni shakllanish darajasi yetarli emasligi, ularning ko'pchiligida mediaga oid bilimlar yuzaki bo'lgani, zamonaviy media yondashuv bilan uyg'unlashtirilmaganligi aniqlandi. So'rovnoma natijalari o'quvchilar orasida mediaga qiziqish mavjudligini, biroq ularning ilmiy asoslangan manbalarga tayanmaganini ko'rsatdi.

Eksperimental bosqichda ishlab chiqilgan metodika tajriba guruhida tatbiq etildi. O'quv mashg'ulotlariga medianing ilmiy asoslari, OAVlar, shuningdek, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish elementlari kiritildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – keys-stadi, interfaol munozara, simulyatsion mashqlar, virtual laboratoriya mashg'ulotlari – qo'llanilishi o'quvchilar faoliyatini jonlantirdi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirdi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika testlari va so'rovnoma shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida media madaniyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Jumladan, mediaga oid nazariy bilimlar o'rtaacha 35–40% ga, amaliy ko'nikmalar 25–30% ga, media madaniyatning axloqiy-psixologik komponentlari esa 20% dan ortiq darajada rivojlandi. Nazorat guruhida esa faqat 5–7% o'sish qayd etildi, bu metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, eksperimental metodika talabalarida nafaqat media haqidagi bilimlarni chuqurlashtirdi, balki ularni zamonaviy axborot texnologiyalari

bilan uyg'unlashtirishga, kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, o'quvchilar media kompetensiyani raqamlashtirish sifatida qabul qilish va kasbiy faoliyatda qo'llashga bo'lgan ijobiy munosabatlarini bildirganlar.

Shu bois, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamlashtirilgan muxitda medianing integrativ imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga kiritish mediamadaniyatni rivojlantirishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini kengaytiradi, balki ularning kasbiy tayyorgarligini, axborot savodxonligiga hurmatini shakllantirishdagi faolligini oshiradi. Tajriba jarayonida metodika qo'llanilgan guruhda o'quvchilarning umumiy mediasavodxonlik darajasi 31,5% ga oshdi, nazorat guruhida esa o'zgarish 6,8% bo'ldi. Ayniqsa, "axborot tahlili" va "ijodiy kontent yaratish" komponentlari bo'yicha sezilarli farq kuzatildi ($p < 0,01$). So'rovnoma asosida o'quvchilarning 82 foizi metodika ularni "axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatgani", 76 foizi esa "ijodiy fikrlashni kuchaytirgani"ni ta'kidladi. O'qituvchilar media topshiriqlarni integratsiyalash dars motivatsiyasini sezilarli oshirganini qayd etdilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamlashtirilgan ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish samaradorligi ta'limning raqamli infratuzilmasiga mos metodik modellarni qo'llash, interfaol hamkorlik muhitini yaratish, media ijodkorlik va refleksiyaning o'quv jarayoniga kiritish orqali ta'minlanadi. Bu natijalar xalqaro tajribalar bilan hamohangdir. Masalan, R.Xobbs (Hobbs, 2022) media ta'limni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida talqin etadi, Frau-Meigs (2021) esa kasbiy yo'nalishdagi media savodxonlikni "raqamli fuqarolik"ning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Bizning tadqiqotda bu nazariy qarashlar mahalliy kasb-hunar ta'limi sharoitiga moslashtirildi. Metodikaning afzalligi — u o'quvchini passiv axborot iste'molchidan faol, ijodkor va tanqidiy fikrlovchi media shaxsiga aylantiradi. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud: texnik vositalar va internet tarmog'ining notekis taqsimlanishi, o'qituvchilarning media-pedagogik tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, o'quv rejalarini jadalligida qo'shimcha modul ajratish zarurati.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida kasb-hunar ta'limi o'quvchilarning mediasavodxonlik ko'nikmalari — ularning professional tayyorgarligi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi muhim kompetensiyadir. Taklif etilgan metodika mediasavodxonlikning axborotli-tanqidiy, kommunikativ-axloqiy va ijodiy-integrativ komponentlarini qamrab olgan. Eksperimental tadqiqotlar ushbu metodika o'quvchilarning media madaniyatini va raqamli kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini isbotladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha maxsus o'quv modullarini joriy etish, o'qituvchilarni media pedagogika yo'nalishida qayta tayyorlash hamda media laboratoriyalarni tashkil etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hobbs R. Media literacy in the digital age: pedagogical strategies. – New York: Routledge, 2022. – 215 p.
2. Frau-Meigs D. Media and information literacy policies in education. – UNESCO, 2021. – 140 p.
3. Geraee N., et al. The effect of media literacy education on students' critical thinking. // Journal of Education and Media Studies. – 2019. – №12(3). – P. 25–33.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
5. OECD. Digital Education Outlook 2030. – Paris: OECD Publishing, 2022.
6. UNESCO. Global framework for media and information literacy. – Paris, 2021.
7. Yuldasheva Z.M. Kasb-hunar ta'limida raqamli pedagogika tamoyillari. // Professional ta'lim jurnali. – 2023. – №4. – B. 32–39.
8. Tashkent Information Technology University. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2024. – 98 b.

9. Кобулова, М. А. (2024). Информационные технологии в медицинском образовании-как фактор повышения качества обучения. *AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari*, 1(1), 434-437.
10. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. *Eastern European Scientific Journal*, (3).
11. Ismanova, A. A. (2015). Educational and others technologies for the prevention of the struggle against religious extremism and terrorism. *Theoretical & Applied Science*, (11), 63-66.
12. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. – Б. 36-37.
13. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келагагининг пойдевори сифатида. —Илмий-педагогик ва ўқув методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. 223 б.